

## INGLIZ TILIDAGI SO'ZLARNI YODLASHDA MNEMONIKA

*Ilmiy rahbar: Mirzayeva Mahbuba Mamajonovna*

*FarDu ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrası dotsenti*

*Zulfizarxon Tursunaliyeva Lazizjon qizi*

*FarDu 3-bosqich talabasi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada ingliz tilini o'rganishni boshlagan o'quvchilarning duch keladigan eng katta muammolaridan biri – so'z yodlash haqida yozilgan. Bundan tashqari, So'z yodlashning bir nechta usullari va eslab qolish san'ati bo'lmish mnemonika haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

**Аннотация:** *Данная статья написана об одной из самых больших проблем, с которыми сталкиваются студенты, начинающие изучать английский язык, – запоминанию слов. Кроме того, представлены несколько методов запоминания слов и информации по мнемотехнике, искусству запоминания.*

**Abstract:** *This article is written about one of the biggest problems faced by students starting to learn English - memorizing words. In addition, several methods of memorizing words and information on mnemonics, the art of memorization, are presented.*

**Kalit so'zlar:** *mnemonika, so'z yodlash, so'z yodlash usullari, kartochka usuli, diqqatni jamlash, tasavvur qilish.*

**Ключевые слова:** *мнемотехника, запоминание слов, методы запоминания слов, карточный метод, концентрация, воображение.*

**Key words:** *mnemonics, word memorization, word memorization methods, card method, concentration, imagination.*

O'quvchi ingliz tilini o'rganish jarayonida o'zining Listening (eshitish), Reading (o'qish), Writing (yozish), Speaking (gapirish) qobiliyatlari ustida ishlaydi va ularni rivojlantiradi hamda tilning asosiy negizi bo'lgan

grammatikasini o'rganadi. Vaholanki, yuqoridagi qobiliyatlarini oshirish uchun til o'rganayotgan o'quvchining so'z boyligi ham yetarli darajada bo'lishi kerak. Agar o'quvchining so'z boyligi yetrali bo'lmasa, u ingliz tilida o'qiyotgan kitobi yoki maqolasida, ko'rayotgan filmi yoki ko'rsatuvida unga notanish bo'lgan so'zlar ko'p uchraydi va natijada, o'quvchi hech nimaga tushunmasligi mumkin. Ammo u lug'atni olib notanish so'zlarni birma bir tarjima qilisa va ularni yod olsa, ham film yoki kitobning asosiy mazmuniga tushunadi, ham lug'at boyligi oshadi. Aksincha bo'lsa u na yangi so'zlarni o'rganadi, na o'qiyotgan kitobi va ko'rayotgan ko'rsatuviga yaxshi tushunmaydi. Bundan ko'rinib turibdiki, ingliz tilini o'rganishda so'z yodlash muhim ahamiyat kasb etadi va tilni o'rganishdagi eng katta muammo hamdir. Til o'rganish jarayonida o'quvchi minglab so'zlarni o'rganishi kerak bo'ladi va buning juda ko'plab usullari mavjud.

Statistika ma'lumotlariga ko'ra, til o'rganayotgan inson yiliga 1200-1500 ta so'z yodlar ekan. Ingliz tilida yangi so'zlarni tez va samarali eslab qolishning sinalgan usullari mavjud. Bir narsa aniqki, so'z yodlashing turli xil usullari mavjud va ularning hammasi o'quvchilarga mos kelmasligi mumkin. Eng muhimi esa hammasini birdaniga ishlatish emas balki o'zingizga qulay usulni tanlab o'rganishda davom etishingiz kerak. [1,50]

1. Yodlagan so'zlaringizni hayotiy misollar bilan bog'lang.

Masalan: suspicious - shubhali

Misol: suspicious friend = shubhali do'st.

2. Cho'ntagingizga sig'adigan yon daftarcha olib yuring va unga yangi uchratgan so'zlaringizni yozib boring va istalgan joyda bo'sh vaqtingizda foydalana olasiz.

3. Yodlamoqchi bo'lgan so'zlaringizni 7-8 marta ovozingizni chiqargan holda talaffuz qiling.

4. So'zlaringizni ishlatgan holda yo tajribangizda bo'lib o'tgan yoki hayoliy hikoya tuzing va og'zaki o'zingizga aytib bering.

5. Kartochka usuli. Ingliz tilida ham, Turk, Rus va Arab tillarida so'zlar yodlaganingizda ham eng boshida 6 oy qiynalsangiz ham hammasini kartachalarga

yoziq yodlang. Bu xuddi o'yindek bo'ladi. Bir tomoniga tarjimasini yoziqadi. Bilganlaringizni tanlaysiz, oxirida bilmaganlaringiz qoladi, ularni esa takrorlaysiz. Sherik bo'lsa ikki kishi bilganlarini aytib tanlaydi, bu qiziqroq bo'ladi. Kartochka tayyorlashga vaqt ko'p ketishini aytmasa juda samarali.

6.Gap tuzib yodlash. Keyinroq yangi tildagi talaffuzga, so'zlarga moslashgach gap va matnlar tuzib yodlang. Bu usullar yangi so'zlarni yodlashda asqotadi.

So'z yodlash usullaridan unumli foydalanmoqchi bo'lgan o'quvchi avvalo ular bilan yaxshilab tanishib chiqishi va ularni amalda qo'llashi kerak. Shundagina bu usullarning aynan qaysi birlari uning ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos kelishini aniqlay oladi. Albatta, bularning hammasini birdan unumli qo'llash deyarli mumkin emas. [1,62]

So'z yodlashda mnemonikadan ham keng foydalaniladi. Mnemonika xotiraga asoslangan usuldir. Mnemonika – o'xshashlik va bog'liqlik asosida xotira hajmini kengaytirish va kerakli ma'lumotlarni eslab qolish uchun ishlab chiqilgan maxsus uslublar to'plamidir. Bunda yangi noma'lum bo'lgan tushunchalar inson ongida allaqachon ma'lum bo'lgan ma'lumotlar bilan bog'lanadi va natijada yangi ma'lumotni eslab qolish osonlashadi. [1,8]

Agarda o'quvchi mnemonikani mukammal o'rganib olsa va uni amalda doimiy tarzda qo'llasa, undagi yangi so'zlarni yodlash zerikarli ekanligi, katta hajmdagi so'zlarni juda oz muddatda yodlashga to'g'ri kelishi va yodlangan so'zlarning xotiradan chiqib ketishi kabi muammolariga yechim topiladi. Mnemonika so'zlarni yodlash jarayonini qiziqarli bo'lishiga va yodlangan so'zlarning butun umr xotirada qolishiga yordam beradi.

Mnemonika ingliz tilidagi yangi so'zlarni yod olishning bir usulidir. Ammo mnemonikaning foydasi faqat yodlash bilan cheklanmaydi. Undan muntazam foydalanish yoki eslab qolish mashqlarini bajarish kundalik hayotda juda zarur bo'lgan boshqa qobiliyatlarni rivojlantirishga yo'l ochadi. Mnemonika orqali diqqatni jamlash, tasavvur qilish qobiliyati oshadi. Bundan tashqari, Mnemonika miyaning ikkala yarim sharini ham ishlatish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, ingliz tilida yangi so'zlarni o'rganish uchun juda

ko'plab usullar va qoidalar bor. Lekin til o'rganishni endi boshlagan insonlar bu usullar bilan tanishib chiqsa va o'zi uchun qulay usulni tanlab olib undan yangi so'zlarni tez va oson yodlay oladi. So'z yodlash usullari juda samarali, ammo til o'rganayotgan insonning o'zida tirishqoqlik, intilish va harakat bo'lmasa, yuqoridagi uslublar foyda bermaydi. Bilingki, inson miyasi juda ko'plab ma'lumotlarni eslab qola oladi. Eng muhimi esa uni qay tarzda qabul qilish.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Shohruh-Mirzo Rahmonov va Iskandar Sattibaev, "So'z yodlash sirlari", "Istiqlol Nuri" nashriyoti, 2013-yil, 8,50,62-betlar.